

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
VETERINARIYA PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH FAKULTETI**

**“ICHKI YUQUMSIZ KASALLIKLAR”  
kafedra assistenti Sh.A. Botirovaning  
“Klinik diagnostika va rentgenologiya” fanidan**

**«Oshqozon va ichaklarni tekshirish» mavzusi bo‘yicha  
60840300 - Veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari ta’lim yo‘nalishi  
2-bosqich 202 – guruh talabalari uchun**

# ***Amaliy ochiq dars ishlanmasi***

**Samarqand – 2023 yil**

**Tuzuvchi:**

**Sh.A. Botirova** – SamDVMCHBU “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasida assistenti

**Taqrizchilar:**

**B.M. Safarov** - SamDVMCHBU “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasida dotsenti

**O.U. Qo‘ldoshev-VITI.** Vetsanitariya urchitish patologiya laboratoriyasi mudiri:  
v.f.d.

**Mavzu: "Oshqozon va ichaklarni tekshirish" mavzusidagi amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

<i>Mashg'ulot vaqti – 80 daqiqa</i>	Talabalar soni- 23 nafar
<i>O'quv mashg'ulotning shakli: amaliy mashg'ulot</i>	Salomlashish, yo'qlama, o'tilgan mavzuni so'rash va baholash, yangi mavzuni tushintirish va ish jarayonini tashkillashtirish.
<i>Amaliy mashg'ulotining o'quv elementlari:</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ot, cho'chqa, it va parrandalarda oshqozon topografiyasi va oshqozon tekshirish tartibi va usullari.</li> <li>2. Hayvonlarda ichakni tekshirish</li> </ol>
<b><i>O'quv mashg'ulot maqsadi.</i></b> Talabalarga ot, cho'chqa, it va parrandalarda oshqozon va ichaklarni ko'rish, mahalliy ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya, zond yuborish, rektal tekshirish va rentgenografiya usullarida klinik tekshirib, kasalliklarning xususiyati va kechayotgan joyini aniqlashni ko'rsatib berish orqali ko'nikmalarini shakllantirish.	
<p style="text-align: center;"><b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b></p> <p><b>1.1.</b> Oshqozonni tekshirganda quyidagi ko'rsatgichlarni aniqlash usullarini talabalarga namoyish etish: oshqozonni joylashgan joyini ko'rish paypaslash, perkussiya va auskultatsiyada tekshirganda o'zgarishlar bor-yo'qligi, sog'lom hayvonlarda va kasalliklarda qanday o'zgarishi to'g'risida ma'lumot beradi, hayvonda bajarib ko'rsatadi.</p> <p><b>1.2.</b> Talabalarga oshqozonni ko'rish, paypaslash, va auskultatsiya usuli yordamida hayvonda tekshirib, tekshirish natijalarini daftarga yozishga topshiriq beradi. O'qituvchi talabaning mustaqil bajarishini nazorat qilib turadi.</p> <p style="text-align: center;"><b><i>(1-topshiriq)</i></b></p> <p><b>2.1.</b> Ot, cho'chqa, it va parrandada talaba metodika asosida oshqozonni tekshirib, belgilangan ko'rsatgichlarni aniqlaydi, natijalarini daftarga yozadi, me'yorga taqqoslab tahlil qiladi va xulosalarini yozadi. O'qituvchi talabaning mustaqil bajarishini nazorat qiladi.</p>	<p><b><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></b></p> <p><b>1.</b> Talabalar eshitadi yozadi va mavzu bo'yicha topshiriqlarni mustaqil bajarib, natijalarini daftarga yozib, vrachlik xulosasini shakllantiradi.</p> <p><b>1.2.</b> Talabalar hayvonlarda ko'rish, paypaslash, auskultatsiya, mahalliy ko'rish va zond yuborish usuli yordamida hayvonni oshqozon-ichaklarni tekshirai o'zgarganmi yoki yo'q, klinik tekshirib, aniqlaydi, natijalarini daftarga tushiradi hamda vrachlik xulosasini yozadi.</p> <p><b>2.1</b> Talabalar metodika asosida oshqozonni tekshirib tekshirish natijalarini va vrachlik xulosasini daftarga yozadi.</p>

<p><b>2.2.</b> Talabalarga ko‘rish, paypaslash va eshitish usuli yordamida oshqozonni klinik tekshirib, natijalarini daftarga yozishga topshiriq beradi. O‘qituvchi talabaning mustaqil bajarishini nazorat qilib turadi</p> <p style="text-align: center;"><b>(2-topshiriq)</b></p> <p><b>3.</b> Talaba har xil turdagi hayvonlarda ichaklarni tekshiradi, belgilangan ko‘rsatgichlarni aniqlaydi, natijalarni daftarga qayd qilib, me‘yorga taqqoslab, xulosalarini yozadi.</p> <p>O‘qituvchi talabaning mustaqil bajarishini nazorat qilib turadi</p> <p><b>4.</b> Darsni yakunlash.</p>	<p><b>2.2.</b> Talabalar ko‘rish, maxalliy ko‘rish, paypaslash va eshitish usuli yordamida oshqozonni klinik tekshiradi va vrachlik xulosasini daftarga yozadi.</p> <p><b>3.</b> Talabalar ko‘rish usulida tekshirganida ichaklar joylashgan sohada qorin xajmining o‘zgarishiga, hayvonning bezovdalanishi va xar hil xolatda turishlariga ichak kasalliklarinig belgilarini klinik tekshiradi va vrachlik xulosasini daftarga yozadi.</p> <p><b>4</b> Mavzu yuzasidan umumiy xulosalarga keladilar.</p>
<p><i>Ta’lim usullari</i></p>	<p>Aqliy hujum, tezkor savol javob, kichik guruhlarda ishlash, topshiriqlarni mustaqil bajarish.</p>
<p><i>Ta’limni tashkillashtirish shakli</i></p>	<p>Guruhli</p>
<p><i>Ta’lim vositalari</i></p>	<p>Hayvon (ot, eshak, mushuk, it, cho‘chqa, qoramol) kompyuter, videoproektor, slaydlar, plessimetr, fonendoskop, perkussion bolg‘acha, sochiq, doska, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali jixozlar.</p>
<p><i>Ta’lim berish sharoiti</i></p>	<p>Maxsus jihozlangan auditoriya.</p>
<p><i>Monitoring va baholash</i></p>	<p>Og‘zaki so‘rov: tezkor – so‘rov, test.</p>

**“Oshqozon va ichaklarni tekshirish” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	Mavzu bo‘yicha ta’limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o‘quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi	
1 - bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.)	<p><b>1.1.</b>O‘tilgan mavzuni so‘raydi va baholaydi va yangi mavzu bilan bog‘laydi</p> <p><b>1.2</b> Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligi va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p><b>1.3.</b>Tekshirilayotgan organlarda ko‘rsatgichlar sog‘lomlikda qanday bo‘lishi kasalliklarda qanday o‘zgarishi haqida ma’lumot beradi.</p>	<p><b>1.</b>Tinglaydilar.</p> <p><b>2.</b> Savollarga javob beradi.</p> <p><b>3.</b>Eshitadi, yozib oladi.</p>
2 - bosqich Asosiy bosqich (60 daq.)	<p><b>2.2.</b> Mavzu bo‘yicha tekshirilayotgan organlarni ko‘rish, paypaslash, perkussiya, eshitish va maxsus ko‘rish usullarida: tekshirib o‘zgarishlar bor-yo‘qligi, auskultatsiyada tovushlarning eshutilishini sog‘lom hayvonlarda va kasalliklarda qanday o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumot beradi va hayvonda bajarib ko‘rsatadi.</p> <p>Talabalarni o‘zlari mustaqil tekshirishni topshiradi va ishlarini nazorat qiladi.</p> <p><b>2.3.</b> Talaba organlarni hayvonlarning chap va o‘ng tomonlaridan tekshirib, belgilangan ko‘rsatgichlarni aniqlaydi, daftarga yozadi, tahlil qiladi va xulosasini shakllantiradi. O‘qituvchi talabaning mustaqil bajarishini nazorat qiladi.</p>	<p><b>2.2.</b> Talabalar kichik guruhlarga ajralib, organlarni ko‘rish, paypaslash, perkussiya va eshitish usullarida tekshirib o‘zgarishlar bor-yo‘qligi, eshitganda tovushlar xususiyatiga qarab, xulosalarini daftarga yozadi.</p> <p><b>2.3.</b> Talabalar kichik guruhlarga ajralib, hayvonlarda oshqozon va ichaklarni klinik tekshirib, tekshirish natijalariga asoslanib vrachlik xulosasini daftarga tushiradi.</p>
3 - bosqich. yakuniy (10 daq.)	<p><b>3.1.</b>Amaliy mashg‘uloti bo‘yicha yakuniy xulosa qilinadi. Oshqozon va ichaklarni sog‘lom yoki kasal deb diagnoz qo‘yishda klinik tekshirish usullarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega ekanligini, talabaga kelgusida kasbiy faoliyatlarida muhim ekanligini yetkazadi.</p> <p><b>3.2.</b> Darsda faol qatnashgan talabalarni rag‘batlantiradi.</p> <p><b>3.3.</b> Dars yakunida umumiy xulosa chiqariladi, talabalar savoliga javob beradi, uyga topshiriq</p>	<p><b>3.1.</b> Tinglaydilar xulosa chiqaradilar va tushinmagan joylariga savollar beradi.</p> <p><b>3.2.</b> O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar.</p> <p><b>3.3.</b>Tushinmagan joyiga savol</p>

	beriladi va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi.	beradi.Topshiriqni yozadilar.
--	---	-------------------------------

## 13-amaliy mashg'ulot: Oshqozon va ichaklarni tekshirish (2 soat)



### O'quv elementlari:

**1. Ot, cho'chqa, it va parrandalarda oshqozon topografiyasi, tekshirish tartibi va usullari.**

**2. Hayvonlarda ichakni tekshirish**

#### Asosiy tayanch iboralar

- Har xil turdagi hayvonlarda ➤ Ichaklarni tapografiyasi medani tekshirish va gastrid belgilari
- Hayvonlarda ichaklarni tekshirish metodikasi

#### Mashg'ulotning maqsadi:

Talabalarga ot, cho'chqa, itlarning oshqozon va ichaari tekshirish tartibi va usullarini o'rganish hamda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

#### ***B.B.B. SXEMASI***

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
<i>(dars boshida yoziladi, talabining birlamchi bilimni baholash uchun)</i>	<i>(Dars boshida yoziladi o'qituvchi ishini rejalash uchun)</i>	<i>(Dars oxirida yoziladi talabining qo'shimcha olgan bilimni baholash uchun)</i>

- 1. Bir tuyoqli hayvolar medasi qorin bo'shlig'ning qaysi sohasida joylashgan?**
- 2. Oshqozon kasalligining belgilari?**
- 3. Turli hayvovlarda ichaklarning joylashishi**

**Dars jihozlari** - namoyish etiladigan materiallar, asboblari, arqon, sochiq, sovun, turli hayvonlar uchun zondlar, hayvonlar: ot, eshak, yirik shoxli hayvon, it, parrandalar. Kergichlar, Vazelin yog'i, Sprinsovka.

**Mashgulotning borishi:** o'qituvchi tomonidan 10 minut davomida talabalarga ot, cho'chqa, itlarning oshqozoniga, va qushlarning jig'ildoniga zond yuborish texnikasini va oshqozon va ichaklarini tekshirish usullarini tushuntirish.

Otlarning me'dasi qorin bo'shlig'ining o'rta yuqori qismida, umurtqalar ostida, ko'proq chap tomonda, 10-14 qovurg'alar ostida joylashadi. Me'da bilan chap qorin devori oralig'ida ingichka ichaklar joylashganligi uchun bu a'zo qorin devoriga tegib turmaydi. Faqatgina nafas chiqarganda me'da chap qorin devoriga yaqinlashadi. Shuning uchun me'dani paypaslash, perkussiya, auskultatsiya usullari bilan tekshirib bo'lmaydi.

Bir tuyoqlilar me'dasi umumiy ko'rish, maxalliy ko'rish, zond yuborish va rentgenografiya usullari bilan tekshiriladi. Umumiy ko'rish usuli bilan tekshirganda hayvonda gastrit belgilari bor-yo'qligiga va me'da joylashgan joydagi o'zgarishlarga e'tibor beriladi. Sog'lom hayvonlarda gastrit belgilari va me'da sohasida o'zgarishlar bo'lmaydi, gastritda otlarda o'ziga xos belgilar: hayvonning mudroq bosishi, tez-tez esnashi, ustki lablarni yuqoriga ko'tarishi (chuchaytiraverishi), ishtahaning o'zgarishi, shilliq pardalarning sarg'ayishi, tili va og'iz shilliq pardalari ustida oq cho'kma (karash) paydo bo'lishi kuzatiladi.

Mahalliy ko'rish usuli bilan me'da sohasiga bo'rtib chiqqan joylar va shishlar bor-yo'qligiga e'tibor beriladi, sog'lom hayvonlarda me'da sohasida yuqoridagi o'zgarishlar bo'lmaydi. Me'da ozuqalar yoki gaz bilan to'lganda, oshqozon kuchli keugayishi natijasida sanchiq belgilari kuzatiladi, ba'zan ot kekirishi yoki qusishi mumkin, 14—17 qovurg'alar oraliqlari va chap och biqin kattarib, do'mbayib turadi. Shunda me'daga zond yuborib tekshiriladi. Me'dada gaz to'plangan bo'lsa, zond yuborilganda zond orqali gaz tashqariga chiqib ketadi, shish yo'qoladi, hayvonning ahvoli yaxshilanadi. Agarda me'daga zond yuborgandan keyin shish yo'qolmay, hayvonning ahvoli yaxshilanmasa, me'da ozuqalar bilan to'lganligidan dalolat beradi.

## **Gastrit belgilari**

1. Ishtahaning buzilishi.
2. Loxaslik va uyqusirash.
3. Esnash.
4. Yuqorigi lablarni tez-tez ko'tarib turishi.
5. Tilda oqimtir, ko'kimtir pardalarning hosil bo'lishi.
6. Shilliq pardalarning sarg'ayishi

### Cho'chqa, it va mushuklarning oshqozonini tekshirish

Bu hayvonlarning oshqozoni chap qovurg'a yoyining ostida, qorin bo'shlig'ining pastki qismida joylashgan. Oshqozon ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya, zond yuborish va rentgenografiya usullari bilan tekshiriladi.

Ko'rish usuli bilan tekshirganda oshqozonning shakli va hajmi, gastrit belgilari aniqlanadi. Sog'lom hayvonlarda oshqozon shakli va hajmi o'zgarmagan bo'lib, kasallik belgilari bo'lmaydi. Agarda oshqozon gaz yoki ozuqalar bilan to'lgan bo'lsa, oshqozon sohasi shishib va bo'rtib turadi. Oshqozon yallig'langan bo'lsa, ishtahasi buziladi va o'zgaradi. Mahsuldorligi kamayadi, hayvon ozg'in bo'ladi, ich ketish yoki ich qotish kuzatiladi, kasal hayvonlar ko'pincha to'shama ostiga yoki qorong'i burchaklarga yotib oladi, o'tirgan holatda bo'ladi, qusish kuzatiladi. Bunda chuqur paypaslaganda, chap qovurg'a yoyi ostiga barmoq uchlarini botirib, paypaslanadi va oshqozonning holati, to'lishi, u yerdagi ozuqalarning yumshoq qattiqligi, og'riq sezishi, oshqozon ichida o'sma yoki yot narsalar borligi aniqlanadi. Sog'lom hayvonlarda oshqozon o'rtacha to'lgan, devori va ichidagi ozuqalar yumshoq bo'lib, og'riq sezmaydi. Oshqozonda gaz to'plansa, devorlari taranglashgan, hajmi kattargan bo'ladi. Hayvonda sanchiq belgilari kuzatiladi. Gastritda hayvon og'riq sezadi. Chap tomondan oxirgi qovurg'alar ostidagi oshqozon perkussiya qilinganda sog'lom hayvonlarda kuchsiz nog'orasimon tovush eshitiladi. Oshqozon ozuqalar bilan to'lganda bo'g'iq yoki bo'g'iqroq tovush, gaz bilan to'lgan bo'lsa, o'tkir nog'orasimon tovush eshitiladi.

Auskultatsiya qilganda sog'lom hayvonlar oshqozonidan kuchsiz shitirlagan, qisiriagan yoki shildiragan tovushlar eshitiladi. Kasalliklarda bu tovushlar kuchayishi, susayishi yoki umuman eshitilmasligi mumkin. Zarurat tug'ilganda og'iz ochilib, tibbiyot zondi oshqozonga kiritilib tekshiriladi. Oshqozon yarasiga gumonsiralsa, hayvon och qoldirilib, bariy moddasidan ichirilib, rentgenografiya usuli bilan tekshiriladi.

### Parrandalarning oshqozonini tekshirish

Parrandalarda bezli va muskulli oshqozonlar bor. Bezli oshqozon qorin bo'shlig'ining ichkarisida joylashganligi uchun tekshirib bo'lmaydi. Muskulli oshqozonni chap tomondan, to'sh suyagi ostidan paypaslab, og'riq sezishi, yot narsalarning borligi aniqlanadi. Gastritda paypaslaganda parrandalar og'riq sezadi.

**1-topshiriq**-ot, cho'chqa, it va parrandada talaba metodika asosida oshqozonni tekshirib, belgilangan ko'rsatgichlarni aniqlaydi, natijalarini daftoriga yozadi, me'yorga taqqoslab tahlil qiladi va xulosalarini yozadi.

**Ichaklar** – ovqat hazm qilish tizimining bir bo'limi bo'lib, oshqozonning piloris qismidan boshlanib, orqa chiqaruv teshigida tugaydi. Bu yerda ketma – ket oziqalarning hazm bo'lishi, so'rilishi va tezakning shakllanishi amalga oshiriladi.



## Ichaklarning joylashishi


Ichaklarning joylashishi hayvonlarning turiga bog‘liq va quyidagicha bo‘ladi:

1. Kavshovchi hayvonlarda hamma ichaklar qorin bo‘shlig‘ining o‘ng tomonida joylashgan. Shirdon qorindan o‘n ikki barmoqli ichak boshlanib, diafragma bo‘ylab yuqoriga ko‘tariladi va qorin bo‘shlig‘ining yuqori qismida joylashadi (bel umurtqalari ko‘ndalang o‘simtalari ostida). O‘n ikki barmoqli ichakdan och ichak boshlanib, qorinning orqa devori bilan pastga tushadi va qorin bo‘shlig‘ining pastki qismida joylashadi. Shu yerda yonbosh ichak ham joylashgan. Keyin ko‘r va chamber ichaklar boshlanib o‘ralgan holda qorin bo‘shlig‘ining o‘rta qismida joylashadi.

2. Bir tuyoqli hayvonlarda ingichka ichaklarning hammasi qorin bo‘shlig‘ining chap yuqori qismida joylashadi (chap och biqinda). Ko‘r ichak o‘ng och biqindan boshlanib, qorinning orqa devori orqali pastga, to‘sh suyagiga qarab tushadi va qorinning o‘ng orqa qismida joylashadi. Chamber ichaklar qorin bo‘shlig‘ining o‘ng oldingi va chap pastki qismlarida joylashadi.


3. Cho‘chqa, it, mushuk va yirtqich hayvonlarda qorinning o‘ng tomonida asosan ingichka ichaklar, chap tomonda – yo‘g‘on ichaklar joylashgan.

4. Parrandalarda uzun ko‘richak va qolgan qismida ingichka ichaklar va to‘g‘ri ichak joylashgan.




Sogʻlom hayvonlarda qorin devori va ichaklar yumshoq va elastik boʻladi, ogʻriq sezmaydi. Ichaklar ichidagi moddalar yumshoq boʻlib, vaqti-vaqti bilan ichaklarning harakatini sezish mumkin. Kasalliklarda paypaslaganda ogʻriq sezadi, ichaklarning buralib va oʻralib qolganini, ximostaz va koprostaz borligini va boshqa oʻzgarishlarni aniqlash mumkin.

Ichaklarni perkussiya qilganda ularning joylashgan joyini bilish kerak. Kavshovchi hayvonlarning ichaklar oʻng tomondan perkussiya qilinadi. Bunda sogʻlom hayvonlarda ichaklardan past nogʻorasimon yoki boʻgʻiqroq tovushlar, oʻng och biqindan koʻr ichakning yuqori qismidan perkussiyada nogʻorasimon tovush eshitiladi. Bir tuyoqli hayvonlarda meʼyorda qorin boʻshligʻining chap yuqori qismidan (chap och biqindan) oʻrtacha nogʻorasimon (ingichka ichaklar), boshqa joylaridan boʻgʻiqroq (chambar ichak) tovushlar eshitiladi. Ichaklar oʻralib qolganda ximostaz, koprostazda boʻgʻiq tovush eshitiladi. Ichaklarda gaz toʻplanganda kuchli nogʻorasimon tovush eshitiladi.



Ichaklarni bevosita auskultatsiya qilganda, ichaklar joylashgan joy toza material bilan qoplanib, quloqni qorin devoriga zich tegizib eshitiladi. Bunda shifokor hayvonning orqasiga qarab turadi. Vositali auskultatsiyada ichak joylashgan joyga fonendoskop yoki stetoskop zich qoʻyilib eshitiladi. Ichaklarni

auskultatsiya qilganda, ularning harakati davrida hosil bo‘ladigan tovushlar eshitiladi va tahlil qilinadi. Ingichka ichaklar harakati natijasida hosil bo‘ladigan tovushlar suyuqliklarning harakati davrida hosil bo‘ladigan tovushga o‘xshash bo‘ladi. Yo‘g‘on ichaklardan shildiragan va g‘o‘ldiragan tovushlar uzoqdan eshitilganday zo‘rg‘a eshitiladi.



Qorin bo‘shlig‘idagi a‘zolari to‘g‘ri ichak orqali tekshirish yoki rektal tekshirish

Qorin bo‘shlig‘idagi a‘zolari yirik hayvonlarda (qoramol va otlarda) to‘g‘ri ichak orqali ichki paypaslash usuli bilan ham tekshiriladi. Rektal tekshirish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda shifokor o‘ng qo‘l barmoqlarining timog‘ini olib, qo‘lidagi terining butunligi buzilgan joylar bo‘lsa, o‘sha joylarga vazelin surtib yoki maxsus qo‘lqop kiyib, qo‘li yoki qo‘lqopni iliq suv yordamida sovunlab, qo‘l barmoqlarini bir joyga to‘plagan holda, sfinktor orqali to‘g‘ri ichakka kiritadi va to‘g‘ri ichakni to‘plangan tezakdan tozalaydi.

Ikkinchi bosqichda shifokor rektal tekshirishda sfinktor holatini, to‘g‘ri ichak shilliq pardasining holatini, toz bo‘shlig‘ida hamda qorin bo‘shlig‘ida joylashgan a‘zolarining shaklini, konsistensiyasini, yuza xususiyatini, og‘riq sezishini to‘g‘ri ichak orqali aniqlaydi. Sog‘lom hayvonlarda qo‘l to‘g‘ri ichakka kiritilganda, sfinktor qo‘lni siqadi, bosim beradi. To‘g‘ri ichak shilliq pardasi nam, sirpanchiq bo‘ladi; to‘g‘ri ichakda doim ma‘lum miqdorda tezak bo‘ladi. Kasalliklarda quyidagi o‘zgarishlar aniqlanishi mumkin. Quturish kasalligida. Ichaklarda moddalar to‘xtab qolganda sfinktor qattiq qisilgan, to‘g‘ri ichak shilliq pardasi quruq va og‘riqli bo‘ladi; 2.Surunkali diareyadi. Orqa miyaning bel umumrtqalari qismi kasalliklarida sfinktor bo‘sh bo‘lib, bosim kuzatilmaydi; 3.Peritonitda to‘g‘ri ichak og‘riqli bo‘ladi; 4.Ichak yalliglanganda to‘g‘ri ichakda juda ko‘p miqdorda tezak to‘planadi; 5.Ximostaz va kaprostazda, ichaklarning buralib qolishi paytida ichakdagi moddalar harakat qila olmaganligi sababli, to‘g‘ri ichakda tezak bo‘lmaydi; 6.To‘g‘ri ichakning kataral yallig‘lanishida to‘g‘ri ichakda ko‘p miqdorda shilliq to‘planadi. qon quyilgan bo‘lsa, qon yoki uyushgan

qon to'planadi.

Toz bo'shlig'idagi bachadon, siydik pufagi va siydik oquvchi yo'llar paypaslanganda, bu a'zolarining shakli, hajmi, og'riq sezishi va joylashgan joyi aniqlanadi. Shundan keyin qo'l yanada ichkariroqqa kiritilib, qorin bo'shlig'idagi a'zolar tekshiriladi. Bunda, qoramollarda qo'l barmoqlarini chapga yo'naltirilib, katta qorin o'ngga yo'naltirilib ichaklar tekshiriladi. Otlarda barmoqlarni chap yuqori tomonga yo'naltirib, ingichka ichaklarni chap pastki tomonga yo'naltirib, chambar ichaklarni o'ng tomonga yo'naltirib, ko'r ichak va chambar ichaklarni tekshiradi. Oxirida barmoqlarni oxirgi bel umurtqalarining chap ko'ndalang o'simtalari ostidan chap buyrak paypaslanadi. Sog'lom hayvonlarda qoramol buyragi loviyasimon, yuzasi g'adir-budir va notekis, zich bo'lib, og'riq sezmaydi, otning buyragi yuzasi silliq bo'ladi. Kasalliklarda buyraklar dumaloq, konsistensiyasi qattiq yoki bilqillagan bo'ladi, yalligianish buyrak jomiga olgan bo'lsa, og'riq sezadi. Qovuq sfinktori spazmida qovuq siydikka to'lib, dumaloq shaklda bo'ladi; yallig'langan bo'lsa, ogliq sezadi, siydik oquvchi yo'llarga tosh tiqilgan bo'lsa, qovuqda umuman siydik bo'lmaydi.

**2-topshiriq**-talaba har xil turdagi hayvonlarda ichaklarni tekshiradi, belgilangan ko'rsatgichlarni aniqlaydi, natijalarni daftoriga qayd qilib, me'yorga taqqoslab, xulosalarini yozadi.

**3-topshiriq**-qoramolda rektal tekshirish uchun talaba qo'lini tayyorlaydi, qo'lni to'g'ri ichakka kiritib, tezakdan tozalaydi va toz hamda qorin bo'shlig'idagi ichki a'zolarini to'g'ri ichak devori orqali paypaslab, bachadonni, qovuqni, kattaqorinni, ichaklarni va chap buyrakni tekshiradi, belgilangan ko'rsatgichlarni aniqlaydi, natijalarni daftoriga qayd qilib, xulosalarini yozadi.

## Darsni yakunlash.



### 1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosa berish.

Bir tuyuqli hayvonlarda oshqozon qorin bo'shlig'iningoldingi qismida o'rtada joylashishi, gaz va ozuqa borligi aniqlanadi. ko'proq chap tamonda joylashgan; umumiy va iaxsus ko'rish usullari bilan, zond yuborish va rentgenografiya usullari bilan tekshirilib, gastrit belgilari bor-yo'qligi, oshqozon xajminin kattarishi.

➤ Cho'chqa, it, mushuk va yirtqich hayvonlarda oshqozon chap qovurg'a yoyi ostida joylashgan; ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya, zond yuborish va rentgenografiya usullari bilan tekshirilib, oshqozon yalig'lanishi belgilari, hajmi, ozuqalar konsistensiyasi, og'riq sezishi, perkussiya va

auskultatsiyada eshitiladigan tovushlar, joylashishi, gaz va ozuqalar borligi aniqlanadi.

➤ Parrandalarda muskulli va bezli oshqozon to'sh ostida joylashgan paypaslash, perkussiya va auskultatsiya usullarida tekshirilib ozuqalarning konsistensiyasi, og'riq sezishi aniqlanadi.

➤ Ichaklar umumiy tekshirish usullari, rentgenografiya, rektal tekshirish usullari bilan tekshirilib, bo'rtgan, shishgan joylar bor-yo'qligi, og'riq sezishi, moddalarning konsistensiyasi; perkussiya va auskultatsiyada eshitiladigan tovushlar aniqlanadi. Entrokolit belgilariga e'tibor beriladi.

### **Talabalar bilimni baholash uchun test**

**1. Otlarda ishtahani buzilishi, uyqisirash, yuqori lablar ko'tarilishi, tilda qatlam hosil bo'lishi, og'izdan qo'lansa hid kelishi qaysi kasallikning sindromatikasi?**

- a) gastrit
- v) enterit
- s) gepatit
- d) retikulit

**2. Itlar, yirtqichlar va cho'chqalarning me'dasi qaysi usullarda tekshiriladi?**

- a) ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya va termometriya
- v) ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya usullarida
- s) ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya va zond yuborish
- d) ko'rish, paypaslash, perkussiya, auskultatsiya va ruminografiya

**3. Qaysi hayvonlarda ko'richak halqa shaklida?**

- a) yirtqichlarda
- v) birtuyoqlilarda
- s) chuchqalarda
- d) kavshovchilarda

**4. Qaysi hayvonda ko'richak katta qoringa o'xshash vazifani bajaradi?**

- a) chuchqalarda
- v) kavshovchilarda
- s) bir tuyoqlilarda
- d) yirtqichlarda

**5. Bir tuyoqlilarning qaysi organidan qisirlagan, shitirlagan, krepitasiya tovushi eshitiladi?**

- a) ko'richak
- v) yo'g'on ichak
- s) chambarichak
- d) ingichka ichak

**6. Qaysi hayvonlar ichagi taqa shaklida joylashadi?**

- a) itlarda
- v) otlarda
- s) cho'chqalarda

d) qoramollarda

**7. Qaysi hayvonlarda ichaklar qorin sohasining bir tomoniga joylashgan?**

a) chuchqalarda

v) bir tuyoqlilarda

s) kavshochilarda

d) yirtqichlarda

**8. Ingichka ichaklar qaysi hayvonda qorin bo'shlig'ining faqat chap och biqin tomoniga joylashadi?**

a) bir tuyoqlilarda

v) kavshovchilarda

s) chuchqalarda

d) yirtqichlarda

**Nazorat savollari:**

1. Otlarda, cho'chqada, itda, yirtqich hayvonlarda va parrandalarda me'da topografiyasini ayting.

2. Otda me'dani tekshirish usullarini va gastrit belgilarini tushuntiring.

3. Cho'chqa, it, yirtqich hayvonlar oshqozonini tekshirganda qaysi usullar qo'llaniladi va gastrit belgilari qanday?

4. Har xil turdagi hayvonlar ichaklarining topografiyasini ayting.

5. Ichakni auskultatsiya qilganda qanaqa tovushlar eshitiladi?

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Safarov M.B., Safarov M.M. Klinik diagnostika va rentgenologiya. Darslik. "Sano- standart" nashriyoti. Toshkent, 2019 yil.

2. Kurdeko A.R. Klinecheskaya diagnostika bolezney jivotnyx. Meditsinskaya kniga, Minsk, 2013 god.

3. Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiyev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Samarqand, SamDU tahririy nashriyot bo'limi, 2020 yil. – 435 bet.

#### **Axborot manbaalari**

4. [www.Ziyo.net.uz](http://www.Ziyo.net.uz).

5. [www.veterinariya.medsinasi.uz](http://www.veterinariya.medsinasi.uz)



